



The necessity of developing a methodology for teaching Latin and medical terminology

Zafar MAKHMUDOV ¹

Samarkand State Medical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

medical terminology,
linguistics,
translation,
memorization,
assimilation,
Latin,
methodology.

ABSTRACT

Modern medicine requires skilled and knowledgeable medical professionals capable of working in a multicultural society. The purpose of this article is to define the structure and content of the Latin language and medical terminology course, which aims to facilitate active and motivated learning of this subject through medical terminology.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp34-40>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitish metodikasini ishlab chiqishning zarurlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tibbiy terminologiya,
lingvistika,
tarjima,
yod olish,
o'zlashtirish,
lotin tili,
metodika.

Zamonaviy tibbiyot ko'p madaniyatli jamiyatda ishlashga qodir bo'lgan malakali va bilimli tibbiyot mutaxassislariga muhtoj. Ushbu maqolaning maqsadi ham lotin tili va tibbiy terminologiya fanining tuzilishi va mazmunini aniqlashdan iborat bo'lib, bu fanni tibbiy terminologiya orqali faol va motivatsion o'zlashtirishga yordam berishdir.

¹ Assistant, Department of Languages, Samarkand State Medical University.

Необходимость разработки методики преподавания латинского языка и медицинской терминологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

медицинская терминология, лингвистика, перевод, запоминание, освоение, латынь, методика.

Современная медицина остро нуждается в квалифицированных и образованных специалистах, готовых эффективно работать в мультикультурной среде. Цель данной статьи – определить структуру и содержание курса латинского языка и медицинской терминологии, чтобы способствовать активному и мотивированному освоению данной дисциплины через изучение медицинских терминов.

KIRISH

Bugungi kunda tibbiyot yo'nalishi talabalari va shifokorlardan o'z mutaxassisligi tilini mukammal, kasbiy muloqot vositasi sifatida bilish talab etilmoqda.

Zamonaviy tibbiy terminlarni tushunish va bir millatli bo'lmagan hududda jonli va kasbiy muloqot tili sifatida lotin tili va tibbiy terminologiya tibbiyot universitetlarda majburiy, lekin yetakchi fan bo'lmagan holda, bir tomondan, bilim olish vositasi bo'lishi kerak, ikkinchi tomondan, o'quv fanini singdirishga qaratilgan o'quv vazifasini bajarishi zarur. O'z kasbiga muhabbat, boshqa madaniyatlarga, turli xalqlarning ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shaxsning intellektual salohiyati va bo'lajak mutaxassisning kasbiy mahoratini shakllantiradi, bu esa o'z o'rnida lotin-yunonyunon tilini o'rganishga borib taqaladi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin-yunon tilini o'qitish ushbu yo'nalishlar bo'yicha ish vektorini kengroq ko'lamda belgilaydi, maqsad tibbiyot tilini professional darajada biladigan, madaniyatlararo professional muloqotda ishtirok etishga tayyor, kasbiy ma'lumotlarni olish, ajratib olish, tahlil qilish va undan foydalanish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rgatish ta'limning zamonaviy maqsadi – dunyo axborot makonining imkoniyatlaridan foydalangan holda kasbiy muammolarni tez hal eta oladigan professional mutaxassisni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining axborot-ta'lim muhitida kasb tili kompetentsiyasini shakllantirish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda tibbiy terminologiya masalalari hattoki, mahalliy tadqiqotchilarni ham alohida qiziqirmoqda. Buning sababi tibbiy bilimlar rivojlanishining hozirgi bosqichi terminlarni tanlash va yaratish sohasida qat'iy ilmiy asoslilik bilan tavsiflanadi. Ilmiy kontseptsiya mezonlari masalasi 1930-yillardan boshlab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. 20-asrda esa terminologiya alohida ilmiy bilim sifatida shakllandi. Ko'pgina mamlakatlarning olimlari tibbiyot terminologiyasi, xususan, klinik, farmatsevtik va anatomik-gistologik terminologiya sohasida tadqiqotlar bilan shug'ullanadilar. Zamonaviy tibbiy termin qat'iy sintaktik, semantik va pragmatik talablarga bo'ysunadi. Terminologiya zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan nafaqat tabiiy shakllangan tarixiy shakllanish sifatida, balki ongli ravishda tartibga solinadigan terminlar yig'indisi sifatida o'rganiladi [1].

O'zaro tushunish uchun terminlarning strukturaviy xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Terminlarning strukturaviy shakllarini tahlil qilish ularni shakllantirishning eng samarali usullari va modellarini aniqlash imkonini beradi va bu har qanday terminologik tizimning keyingi rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi.

E.K. Drezen “Yangi terminlarni yasash imkoniyati, terminning shakli va ma'nosi o'rtasida bog'lanishlar o'rnatish imkoniyati tilning strukturaviy xususiyatlari bilan belgilanadi” deb ta'kidlagan.

Termin yasashining xususiyatlari quyidagilar bilan bog'liq: lingvistik vositalar (milliy til birliklari, boshqa tillardan o'zlashtirilgan va sun'iy shakllanishlar), termin yaratish usullari (semantik, morfologik, sintaktik), terminning rasmiy va semantik tuzilishi xususiyatlari. Yillar davomida ko'plab olimlar (S.V. Grinev, V.A. Tatarinov, V.M. Leychik, V.P. Danilenko) tomonidan yangi terminlar shakllanishining asosiy mexanizmlarini tasniflashga urinishlar bo'ldi. Ushbu tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, quyidagi asosiy tarkibiy usullarni ajratib ko'rsatish mumkin: umumiy tildan olingan so'z yoki iboraning termin sifatida ishlatilishidan iborat semantik; morfologik, ya'ni, affikslar yordamida yangi termin yasash; morfologik va sintaktik, ya'ni so'z yasalishi, so'zlarning asoslarini qo'shish orqali yangi termin yaratish; sintaktik, ya'ni terminologik birikmalarni shakllantirish.

Murakkab strukturali termin yasashning eng samarali usuli oddiy, erkin so'z birikmalarini murakkab “so'z ekvivalenti”ga aylantirishdan iborat sintaktik usuldir. Ushbu usul yordamida “Yevropa tillarining turli o'rganilgan terminologiyalari tarkibining 60% - 95%i tashkil topgan bo'lib, bu kasbiy tilning o'ziga xos xususiyati sifatida terminologik iboralar (qo'shma terminlar)ning bir qismli terminlardan ustunligini ko'rsatadi”.

Lotin-yunon tibbiy terminologik tilning lug'at boyligi doimiy ravishda to'ldirilib borish holatida bo'lib, affiksatsiya (affiksatsiya – so'z yasash usuli bo'lib, so'z yasovchi affikslar, ya'ni prefikslar va suffikslar qo'shib, yangi so'zlar hosil qilinadi) kabi morfologik usullar tibbiy terminologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichida lug'at boyligini boyitishda “hukmron mavqe” egallaydi.

Lotin-yunon tilida suffiksatsiya va prefiksatsiyalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminlar ko'proq suffikslar va kamroq prefikslar yordamida hamda mustaqil ma'noli termin elementlar vositasida yangi so'zlarni yaratish usuliga ko'proq moyil bo'ladi.

Murakkab termin elementli iboralarning lingvistik shakllanishlari o'xshash munosabatlariga bir-biri bilan ma'lum tarkibiy-semantik aloqada bo'lgan terminlarning asoslaridan hosil bo'ladi. Murakkab terminlar deganda birikmalash yo'li bilan hosil bo'lgan terminlarni tushunamiz. Masalan: electrocardiographia –elektr toki yordamida yurakning ish jarayonini tasvirlash: birinchi termin element electro- -elektr toki, ikkinchi termin element -cardio- yurak (yunon tilida), uchinchi termin element -graphia –tasvirlash jarayoni (yunon tilida) yoki encephalomegalia –bosh miyaning normadan kattalashishi: birinchi termin element encephalo- bosh miya, ikkinchi termin element -megalia – kattalashish qo'shma so'zni ya'ni o'zaro ma'lum tarkibiy-semantik munosabatda bo'lgan so'zlarning negizlaridan hosil bo'ladi. Shuningdek, parotitis – quloq atrof to'qimalarining yallig'lanishi: bu yerda para- prefiksi atrof ma'nosida, – ot- o'zagi quloq ma'nosida, – itis suffiksi yallig'lanish ma'nosida qo'llaniladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tibbiyot xodimlariga professional lotin-yunon tilini o'rgatishning turli usullari mavjud. Kasbiy yo'naltirilgan ta'limda axborotning asosiy birligi termindir. Mutaxassislik bo'yicha haqiqiy professional yo'naltirilgan terminlar bilan ishlash talabalarga professional ahamiyatga ega ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati uchun yetarli bo'lgan leksik minimumni to'plash va tizimlashtirishga yordam beradi. Tibbiyot universitetlari talabalari uchun leksika birinchi navbatda anatomiya, gistologiya, patologiya, farmatsiya va boshqa tor doiradagi mutaxassisliklar bilan bog'liq terminlardir. Terminlarning o'zlashtirilgan terminologik minimumi talabalarga maxsus terminlarni yod olish va ulardan ma'lumot olish imkonini beradi, shu tarzda ularning kasbiy mahoratini oshiradi.

Terminologik leksik material bilan ishlash yangi so'zlar va terminlar bilan tanishishni, ularni dastlabki mustahkamlashni va nihoyat, nutq faoliyatining har xil turlarida va turli xil muloqot holatlarida yangi lug'atdan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Darslarda barqaror leksik ko'nikmani shakllantirish uchun men quyidagilardan foydalanaman: – leksik minimumni o'rganish. Ushbu bosqichda yangi lug'at kiritiladi. Shu bilan birga, yangi so'zlarning ma'nosi ham to'g'ridan-to'g'ri tarjimada (skeleton – skelet), ham ona tilida qisqacha tushuntirish (vertebra – umurtqa, insonning asosiy, suyakli tayanch ustuni) yordamida berilishi mumkin. Shunday holatlarda, talabalar boshqa fanlardan olgan bilimlarini qo'llashlari mumkin.

Bundan tashqari, yangi lug'at yordamida murakkab tibbiy iboralar tuzish, yangi terminlarni ma'lum bir tamoyil bo'yicha guruhlash (terminlarni nafas olish yoki qon aylanish tizimiga xos qilish), yangi lug'atdan foydalangan holda savollarga javob berish, iboralarni yangi lug'at bilan tarjima qilish taklif etiladi. Ushbu bosqichda yangi lug'atni o'z ichiga olgan haqiqiy terminlar kiritiladi. Ushbu bosqichda terminlar va frazeologik birliklar ajratib ko'rsatiladi, keyinchalik ular matndan keyingi bosqichda mustahkamlanadi. Terminlarning mos kelishi (otlarning kelishiklarda turlanishi, sifatlarning otlar bilan moslashishi, fe'ning otlar bilan mos kelishi)ga e'tibor qaratiladi [3].

Keyingi bosqichda quyidagi vazifalar hal qilinadi: yangi leksik birliklar va terminlarni birlashtirish, leksikani muhokama qilish (terminlarni bilishni talab qiladigan savollarga javoblar; ma'lumotlarning ishonchligini aniqlash uchun topshiriqlar). Ushbu bosqichda turli o'yin texnologiyalari, rolli va biznes o'yinlaridan foydalangan holda professional faoliyatni modellashtirish mumkin.

Bu yerda qo'llash mumkin:

1. Termin mazmuni bo'yicha savollarga javob berish;
2. Termin elementlardan murakkab termin tuzish;
3. Murakkab terminlardagi bo'sh joylarni termin elementlar bilan to'ldirish;
4. Qaysi organ yoki organ tizimi haqida gap ketayotganini aniqlash;
5. Murakkab termin qismlarini moslashtirish;
6. Terminlarni aniqlash;
7. Murakkab tibbiy iboralarni tarjima qilish va hokazo.

Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari kasbiy terminologiyani o'rganish va undan muvaffaqiyatli foydalanishga yordam beradi. Shifokorning tashrifidan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynash, kasallik belgilari, uni davolash usullari, dorilar haqida gapirish – bularning barchasi kasbiy terminlarni mustahkamlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi [4].

MUHOKAMA

Yangi tushunchalarni ifodalashning ekstralingvistik ehtiyoji soʻz yasaliş tizimini rivojlantirishda va alohida modellarning mahsuldorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib, ularni tanlash yangi hodisani eng adekvat ifodalashga qodir. Shunday qilib, terminlarning tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish lotin-yunon tillarida tuzilmaviy termin hosil qilishning eng samarali usuli sintaktik usul ekanligini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida tibbiyot terminlarini amaliy kasbiy tilda oʻqitish metodikasini ishlab chiqish modelining zarurati va uni takomillashtirishni yoʻlga qoʻyish kerakligini koʻrsatadi.

XULOSA

Kasbiy terminologiya bilan ishlash lotin tili va tibbiy terminologiyani oʻqitishda oʻquv jarayonini boshqarish sifatini oshirishga va shunga mos ravishda mutaxassislik boʻyicha lotin-yunon tili lugʻatini rivojlantirishga yordam beradi. Kasbiy odob-axloq meʼyorlari va kasbiy terminologiyaga osongina yoʻnaltirilgan har qanday sohadagi mutaxassis samarali muloqotga tayyor boʻladi va oʻz kasbiy faoliyatida ishonchli va muvaffaqiyatli boʻladi.

Aynan oʻqituvchi talabaga lotin tili va tibbiy terminologiyani oʻrganishdagi qiyinchiliklarni yengib oʻtishga yordam berishi va har qanday yoʻl bilan talabani shaxs sifatida axloqiy tarbiyalash va oʻz kasbini tushunish uchun zarur boʻlgan muhim fan sifatida toʻgʻri idrok etishga undashi va tayyorlashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Abidova M. I. PROFESSIONALIZATION OF THE TEACHER OF THE FOREIGN LANGUAGE OF THE HIGHER EDUCATION INSTITUTION //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 1. – С. 5-7.
2. Abidova M. I. DEVELOPMENT STAGES IN RESEARCH OF MEDICAL TERMINOLOGY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 735-738.
3. Abidova M. I. TEACHING FOREIGN LANGUAGE FOR MEDICAL PURPOSES //ASEAN Journal on Science & Technology for Development. – 2022. – Т. 4. – №. 39. – С. 136-142.
4. <https://infourok.ru/nauchnaya-rabota-professionalnaya-terminologiya-na-urokah-inostrannogo-yazyka-6076032.html>
5. Maxmudov Zafar Mardanovich. (2024). DORIVOR VOSITALARI NOMENKLATURASINING TIPIK GURUHLARI VA ULARNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES, 3(5), 480–487. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/10771>
6. Makhmudov Zafar Mardanovich, & Omonova Mokhigul. (2024). PERSONALITY IN TEACHING THE MODULE OF LATIN AND MEDICAL TERMINOLOGY IN THE MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTION. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH, 2(1), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10595990>
7. Makhmudov Zafar Mardanovich. (2023). EFFECTIVE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PRACTICAL CLASSES OF THE SUBJECT" LATIN LANGUAGE AND MEDICAL TERMINOLOGY". Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 369–375. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10049518>

8. Makhmudov Zafar Mardanovich. (2023). ABOUT SOME METHODS OF TEACHING LATIN IN MEDICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. "XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR"
Nomli Respublika Ilmiy-amaliy Konferensiyasi, 1(10), 245–249.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10049492>
9. Makhmudov, Z. ., Tuychiyev, K., & Usmanov, S. . (2023). SOME OF THE MOST USED FORMS OF MEDICINE IN MEDICAL PRACTICE – THE USE OF TABLETS AND SOLUTIONS. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(13), 20–26. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/7225>
10. Makhmudov Zafar Mardanovich, & Akramov Rustambek Ashraf o'g'li. (2024). LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISH. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 3(9), 38–41. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/1524>
11. Maxmudov, Z. (2023). Lotin tili va tibbiy terminologiya darslarida yunon klinik va farmatsevtik atamalarining qo'llanilishi. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (9), 263-269.
12. Maxmudov, Z. M. (2022). Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganishda o'zbek tili grammatikasining o'rni. Science and Education, 3(11), 756-759.
13. Maxmudov Zafar Mardanovich. (2023). LOTIN TILINING ZAMONAVIY TILLARGA BEVOSITA VA BILVOSITA TA'SIRI. Research Focus International Scientific Journal, 2(6), 132–136. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/288>
14. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. . (2023). LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO'G'RI QO'LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 23–27. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11503>
15. Maxmudov Zafar, & Normurodova Sohiba. (2023). KUNDALIK TURMUSHDA KENG QO'LLANILISHDA BO'LGAN SUYUQLIKLARNI IFODALOVCHI DORI SHAKLLARI HAQIDA CHET EL ILMIY NASHRLARIDAN OLINGAN FIKRLAR. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8035529>
16. Maxmudov, Z. M. Retsept yozishda duch kelinadigan ayrim muammolarning qonuniy yechimi va amalda qo'llash haqida ba'zi mulohazalar,“. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi.
17. Zafar Mardanovich Maxmudov, & Bobur Salimovich Sharipov (2021). LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA UNING ASOSI HAQIDA FIKRLAR. Academic research in educational sciences, 2 (6), 1028-1033. doi: 10.24412/2181-1385-2021-6-1028-1033
18. Maxmudov, Z. ., Sharipov, B. ., & Bo'riyev, D. . (2023). TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Science and Innovation in the Education System, 2(1), 5–10. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/sies/article/view/3158>

19. Omonova, M., & Makhmudov, Z. (2023). Modern signs of using the quince plant in folk medicine. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(4), 41-45.
20. Makhmudov Zafar Mardanovich, The place of problematic and heuristic methods in the process of teaching latin and medical terminology – *PhilPapers*
<https://philpapers.org/rec/MARTPO-200>